

Bolalarni ham jismonan, ham ma'nan sog'lom o'stiraylik!

Vafan yagonadir,

Vatan bittadir!

[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz)

2011-yil  
25-aprel  
N:17  
(66818)

ISSN - 2010-6092

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqsa boshlagan

# TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirilar gazetası

Bolalar sportiga bag'ishlangan

## MAXSUS SON



Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohiblari

**MAKTABNING FAXRI**

Toshkent viloyati, Angren shahridagi 2-umumta'l'm maktabining 8-sinf o'quvchisi Zulxumor Baboyevani maktabning faxri deyishadi. Bizga qolsa, uni nafaqat maktab, balki yurtimiz faxri degan bo'lardik. Boisi, karatening shotakan turi bilan shug'ullanib kelayotgan bu sportchi qizimiz mamlakatimiz va jahon miqyosida o'tkazilayotgan musobaqlarda yuqori natijalarga erishib, yurtimiz sharafini munosib himoya qilib kelmoqda.

Mohir sportchimiz tajribasi yildan yilga ortib borayotganini uning natijalaridan ham bilsa bo'ladi. 2006-yilda o'tkazilgan O'zbekiston championatida 3-o'rinni egallagan bo'lsa, 2008-yili Ruminiyada o'tkazilgan Yevropa championatida hamda Toshkent shahrida o'tkazilgan Osiyo championatida 1-o'rinni qo'lga kiritib, murabbiylari ishonchini ogladi.

2009-yili Yaponiyada o'tkazilgan jahon championatidagi ishtiroti uchun maxsus taqdirlandi. Respublika miqyosida o'tkazilgan «Sog'lom oila» sport musobaqasida, shuningdek, 2010-yilda bo'lib o'tgan O'zbekiston championatida ham 1-o'rinni qo'lidan bermadi.

Turkiyaning Istanbul shahrida hamda Gretsianyan Kipr orolida bo'lib o'tgan jahon kubogi musobaqalarida 1- va 2-o'rirlarni egallab, yurtimizga medallar shodasi bilan qaytdi.

Bugungi kunda Zulxumor ustozlardan o'rganganlari asosida maktabi qoshidagi sport to'garagida kichkintoy uka va singillariga karatening nozik sirlarini o'rgatmoqda.



«... Barcha ozgu niyatlarimizning markasida farzandlarimizni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan sog'lon qilib o'stirish, ularning baxtu saodati, farovon kelajagini ko'rish, dunyoda hech kimdan kam bo'lmaydigan avlodni tarbiyalash orzusi turadi.»

Islom Karimov

## MAYDONLARDA SINALGAN ELMIZ

**M**amlakatimizda bugun bolalar sporti haqida faxlanib gapiradigan kunlar keldi, desak xato bo'lmaydi. Shu yilning 25-fevral kuni bo'lib o'tgan O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi Homiylik kengashining navbatdagagi yig'ilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi Homiylik kengashi raisi Islom Karimov ushbu tuzilma tashkil etilgandan buyon o'tgan davrda amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlar, ularning ahamiyati, mohiyati va amaliy natijalar haqida so'z yuritib, bolalar sportining rivojlanishida keng jamoatchilikning hissasi borligi, qisqa muddatda bolalar sporti umum-milliy harakatga aylanganligini ta'kidlab o'tdilar.

Darhaqiqat, sportga farzandlarimizning qiziqish va intilishi, kerak bo'lsa, mehrnini aymen bolalik chog'idanoq shakllantirish tajribasi qisqa vaqt ichida o'z natijasini bera boshladi. Chindan ham sport bilan do'st bo'lgan bolaning fe'l-atvori, yurish-turishi, g'alabaga intilishi, qat'iyati, mardligi bobida ham g'ururlansak arziydi.

Yurtboshimiz: «G'alaba qozonish deganda men o'zini o'zi tarbiyalash, o'zini intizomga o'rgatish, kamchilik va nuqsonlardan xalos bo'lishni hamda sinovlarni yengib o'tishni nazarda tutaman» deganlarida nechog'li haq'edilar. Demak, o'z-o'zidan ayonki, bolalar sportini rivojlanirmsandan turib, o'zbek sportining kelajagini ta'minlash,

xalqaro maydonlarda obro'e'tibor qozonishiga erishish mumkin emas.

Bunday xayrli ishlardan ruhlanib, Xalq ta'limi vazirligi Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi o'z oldiga bir qator vazifalar qo'ydi. Ayni damda asosiy e'tibor Navoiy viloyatida bo'lib o'tadigan «Umid nihollari

bosqichiga qadar sportchi bolalar o'z viloyatlarida tanqliq sport ustalari yordamida mahorat saboqlarida chiniq-moqdalar. Bu degani shubhasiz, g'alaba sari intilishdir.

Jamg'arma tomonidan Istiqlolimizning 20 yilligi oldidan respublikamizning turli hududlarida ja'mi 217 ta sport

Bu maktab ham xuddi Andijon shahridagi kabi zamonaviy binoga, qulay shart-sharoitlarga ega bo'lib 100 dan ziyod iqtidorli futbolchilarni tayyorlash maskaniga aylanadi.

Xalq ta'limi vazirligi va mutasaddi tashkilotlar, mutaxassislar hamda murabbiylar bilan ham-fikrlikda maktablardagi jismoniy tarbiya o'qituvchilari uchun qo'llanma yaratdik. Endilikda har bir maktabdan yana ko'plab iste'doddorni kashf etib, bolalar sportini ommalashtirish orgali ko'zlangan maqsadlarga erishishga umid qilamiz.

Xayrli ishlarimizdan yana biri sportsevar bolajonlar va ularning murabbiylarini mamnun qiladi. Joylarda qurib, foydalanishga topshirilgan sport inshootlarining qarovsiz holga kelib qolganini ko'rdingizmi? Albatta yo'q. Unday bo'lmaydi ham. Yurtboshimiz Qaroriga ko'ra mazkur sport inshootlarini jihozlar bilan qaytadan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilyapti.

Ishlarimiz natijasiga nazar tashlaganimizda tahlillar shuni ko'satmoqda, bolalarning turli kasalliliklarga chalinishi holati 2005-yilga taqqoslaganda 2010-yilda 10 foizga kamayganini ko'rishimiz mumkin.

Bir so'z bilan aytganda, kela-jagimiz egalari bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash, ular salomatligini mustahkamlashda sportning o'rni beqiyos.

O'tkir RASHIDOV,  
Xalq ta'limi vazirligi Bolalar sportini rivojlantirish Boshqarmasi boshlig'i



- 2012»ga qaratilgan. Hozir viloyatda katta ishlar ko'lami avjida. 10 ming o'rinali markaziy stadion, 5 ta yangi sport majmuasi qurilishi va yopiq suv havzasi tayyorgarlik ishlari avjida. Shu o'rinda yana bir yangilikni bolajonlarga ayitib o'tmoqchimiz:

Respublika inshootlari, 133 ta majmuular, 19 ta suzish havzalari va 65 ta musiqa san'at maktablari qurilishi boshlab yuborildi. Shuningdek, Qashqadaryo viloyatida yosh iqtidorlarni tarbiyalash maqsadida yana bir futbolga ixtisoslashtirilgan maktab-internat qad rostlash arafasida.





Xabar qilganimizdek, kuni kecha poytaxtimizning «Chig'atoy» terma jamoalarni tayyorlash markazida Markazi Osiyo mamlakatlari uchun OFK futbol festivali bo'lib o'tdi. Festivalda Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iziston va o'zbekistonlik o'smirlar maydonda o'z mahoratlarini namoyon etdilar.

Kuchli jamoalarning o'yinlari ham kuchli bo'ldi. Axir ular mazkur festivalda ishtirok etish uchun bir yilga yaqin tayyor-

- Shogirdlarining bugungi o'yinlaridan ko'nglim to'idi, - deydi «U - 13 festival» Bosh murabbiyi Temur aka Alimxojayev

garlik muktabida chiniqdilar-da!

Futbol bayramining ochilish marosimida OFK (Osiyo futbol konfederatsiyasi) o'smirlar bo'limi direktori Jon Uitll,

Zulha MUHSIMNOVA  
olgan surʼalar

# FUTBOL BAYRAMI



O'zbekiston terma jamoalarini tayyorlash Markazi direktori Asqar Tolibjonov, futbol faxriylari Kengashi raisi Narimon Jalolov, FIFA yo'rqihsisi Rustam Akramov ishtirok etdilar.

To'rt yildan buyon OFK

Katta maydonlar sari intilayotgan o'smirlarimiz o'yinlari ko'zni quvnatadi, - deydi OFK o'smirlar bo'limi rahbari Jon Uitll.



- Terma jamoalarga o'yinchilarni kichik maydonlardan saralaymiz, - deydi O'zbekiston terma jamoalarini tayyorlash Markazi direktori Asqar Tolibjonov.



futbol festivaliga mezbonlik qilayotgan Toshkent bu safar ham mehmonlarni iliq qarshi oldi. Ularga bir hafta davomida poytaxtimizning shinam va ko'rakam «Turon» mehmonxonasi xodimlari yuqori darajada xizmat ko'rsatdilar.

Festival doirasida ishtirokchi jamoalar bilan bir qatorda bosh murabbiylar va shifokorlar ishtirokida o'tkazilgan seminarda Markazi Osiyoda bolalar va o'smirlar futbolini rivojlantirish hamda sport tibbiyoti haqida so'z bordi.



## CHEMPTION HAR BOLAMIZ

Bugun qo'llarda bayroq, Champion har bolamiz. Yurt shunday ardoqlasa, Biz tarixda qolamiz!

## BUGUNNING BOLASI

Ulug'bek 3 yoshligi-danoq o'zidan ham kattaroq to'pni ko'tarib olib, Mirjalol akamdek futbolchi bo'laman, deb yurardi. Hozir u a-ncha ulg'a-yib qolgan, 6 yoshda! Lekin hali ham o'sha niyatida turbid...

Bolalar futbol festivali bo'ladigan kuni stadionga erta tongdanoq kelib

Sen yurtimning yuzisan, Baxtimiz kelajagi. Yurtboshimiz qo'llagan, O'zbekning bo'lajagi.

olib, 13 yoshli akalari o'yinini zavq bilan tomosha qildi. Bolakaydan, isming nima, deb so'rab, tarjimonini yordamga chorlagan OFK o'smirlar bo'limi rahbari Jon Uitllining savoliga ingliz tilida burro-burro javob berib, chet ellik mehnmonlar hayratini oshirdi.

Bugunning bolasi shunday bo'ishi ham kerak-da axir, nima dedingiz?!



MEN, OTAM VA ONAM...

Mustaqillik sharofati bilan sportchilarimizga jahon championatlari, Olimpiya o'yinlari, Osiyo birinchiliklari kabi nufuzli musobaqalarda qatnashish baxti nasib etdi.

Ayniqsa, Prezidentimizning 2002-yil 24-oktabrdagi «Bolalar sportini rivojlantirish» jamg'armasini tuzish to'g'risidagi Farmoni sportga e'tiborni yanada kuchaytirdi.

Maktabimiz qoshidagi sport to'garagi a'zolari sportning o'zlarini qiziqqan turlari bilan muntagam shug'ullanishadi. Ayniqsa, mana bir necha yillardan buyon an'anaga aylangan «Men, otam va onam - sportchidir oilam» deb nomlangan sport musobaqasini nafaqat yosh sportchilar, balki ularning ota-onalari ham intiq kutishadi.

Husniddin Husniddinov musobaqada yarq etib ko'zga tashlandi. Uning harakatlarini muxlislar-u, mutasaddilar, bu kichik Messi-ku, deya baholadilar.



Sardor Madrahimovning markazdan turib bergen zarbasi «Super» golga aylandi.

Quyi sinf o'quvchilarini ishtirok etgan bu yilgi tanlovda 1-«V» sinf kichkintoylari

g'olib chiqishdi. Katta-yu kichikka birdekkaviy ulashgan mazkur tadbir uchun otanonalar, uning tashkilotchilariga hamda, maktabning ma'nnaviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosari Maktuba opa Zokirovaga minnatdorchilik bildirdilar.

Sportchilarimiz orasidan maktabimiz faxri bo'lmish «Paxtakor» jamoasi o'yinchisi Alisher Azizovning izdoshlari hali ko'plab yetishib chiqishiga umid qilamiz.

Munisa YOQUBJONOVA, poytaxtdagi 132-maktabning 7-«A» sinf o'quvchisi

4

Sport  
xabarlari

## JIZZAX GIMNASTIKACHILAR

Jizzax viloyatining Paxtakor tumanida ham sportsevar bolajonlar soni talaygina. Xalq ta'limi bo'limiga qarashli «Shodlik» nomli 10-bog'cha-maktabda ham kichkintoylarni sportga jalg qilish, ular orasidagi iqtidorlilarni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mazkur dargohda faoliyat ko'rsatayotgan oltita to'garak doimo bolajonlar bilan gavjum. Ayniqsa, sportning badiiy gimnastika, shaxmat-shashka turlari bo'yicha tashkil etilgan to'garaklar mashg'ulotlari juda qiziqarli o'tadi. Zarur sport anjomlari bilan jihozlangan xonada 25 nafar yosh gimnastikachilarga murabbiy Gulnisa Ergasheva mashg'ulotlar o'tmoqda.



*Suratda: yosh gimnastikachilar mashg'ulot paytida.*

## KICHKINA DEMANG BIZNI...

Maktabimizda Navro'z tantanalari har yili noan'anaviy tarzda o'tadi. Bu yil ham uni milliy o'yinlarimiz bilan boyitdi. O'quvchilar polvonlar bahsi, tosh ko'tarish, uzunlikka va balandlikka sakrash kabi musobaqalarda bellashishdi. Ayniqsa, arqon tortish bahsi juda qiziqarli o'tdi. 6-sinf o'quvchilar 7-sinfdag'i, hatto, 9-sinfdag'i aka va opalarini yengib, birinchilikni qo'lga kiritdilar. «Kichkina demang bizni, qoyil qilamiz sizni» deb shunga aytasalar kerak-da!

Ayjamol KARAMATDINOVA,  
Qoraqalpog'iston Respublikasi, Kegayli tumanidagi  
II-umumta'lum maktabining 6-sinf o'quvchisi



Yaqinda ular «Badiiy gimnastika» ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida muvaffaqiyatlari qatnashib, uchinchi o'rinni qo'lga kiritishdi. Yosh sportchilardan Zarnigor Ulasheva, Shohjahon Ruziyev, Lola Ahmedova va Behro'z Xudoberdiyev musobaqalarda sovindorlar safidan joy olishdi.

O'tgan yili shaxmat-shashka to'garagi a'zosi Shohjahon O'rozov viloyat birinchiligi musobaqasida faxrli o'rinni olishga muvaffaq bo'lgandi. Bunda to'garak rahbari Viktoriya Ozdayevanining xizmatlari katta bo'ldi.

Biz hozirda Jizzax shahrida bo'ladigan «Shirintoy - kichkintoy» ko'rik-tanlovining viloyat bosqichi musobaqalariga tayyorgarlikni boshlab yuborganmiz, - deydi bog'cha-maktab mudirasi Jamila Abulqosimova. - O'quvchilarimiz orasidan bo'la jah championlar yetishib chiqishiga ishonaman. Buning uchun bizda barcha shart-sharoitlar yetarli.

Abdulla SAIDOV

## NA VRO'ZANING SHIORI SHUNDAY...

Namanganlik tengdoshingiz Navro'za Jasurova bir ishga kirishdimi, oxiriga yetkazmay qo'ymaydi. Chust shahridagi 9-maktabning 8-«G» sinfida a'lo baholarga o'qiyotgan bu qizimiz darsdan so'ng, Hisorak qishlog'da joylashgan sport maktabida ustozni Nazira Abdulla-yevadan stol tennisidan saboq olyapti. Tirishqoq qizning qo'lga kiritgan yutuqlari quvonarli. Yaqinda Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq tumanida bo'lib o'tgan Respublika turnirida 3-o'rinni sohibasi bo'ldi. «Sog'lom odamgina chinakam baxtli bo'la oladi». Navro'zaning hayot shiori shunday...



- Sening ham o'ynaging kelapti-ya, - deb qoldi bir kuni bobosi kenjatoyini erkalatib va bitta shaxmat taxtasini oldiga qo'yib unga ham bu o'yinni o'rgata boshladi. Oradan 2-3 oy o'tib, Pokiza ham opalari bilan bermalol

Zarbdor tumanining Rovot mahallasida istiqomat qiluvchi Bozorboy Suyundiqovlar oilasini, sportchilar oilasi, ham deyishadi. Oila boshlig'i Bozorboy bobo shu yerdagi bolalar va o'smirlar sport maktabi qoshidagi shaxmat to'garagini boshqaradi, o'g'li Ravshan Suyundiqov esa ana shu maktab direktori. Nabiralari Sanobar va Sayyora allaqachon bobosidan shaxmat o'ynashni o'rganib olishgan, kenjatoy Pokiza ham ular atrofida girdikapalak.

## POKIZANING POK ORZULARI

bellasha oladigan bo'lib qoldi. Maktab qoshidagi sport to'garagiga ham a'zo bo'lib, murabbiyi Ulug'bek Bo'riboevdan tennis o'ynashni o'rgana boshladi.

Yaqinda sport maktabida «Umid nihollari» sport musobaqalarining tuman bosqichi bo'lib o'tdi. Unda tumandagi 1- va 2-ixtisoslashgan Davlat umumta'lum maktablardan, hamda 23 ta maktablardan 450 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Ular safida hikoyamiz qahramoni Pokiza Xudoyqulova ham bor edi. G'alabalarga o'rganib qolgan yosh sportchimiz o'zi qatnashgan ikki yo'nalish bo'yicha ham g'oliblikni qo'lga kiritib, tennis bo'yicha 3:2,

shaxmat bo'yicha 1:0 natija bilan sof g'alabaga erishdi va viloyat bosqichiga yo'llanma oldi.

- Pokiza, sport mashg'u-lotlari, musobaqalar maktab-dagi saboqlaringga xalal bermaydim? Yozgi ta'tildagi rejalaring qanday? - so'raymiz intiluvchan qizaloqdan.

- Aksincha, sport bilan munta-z shug'ullanishim menga bardamlik, kuch-quvvat bag'ishlaydi. Oynai jahon qarshisida kamroq o'tirilsa, hammasiga ulgur-sa bo'ladi. Bo'sh vaqtim bo'lsa, kitob o'qiyman. Yaqinda Nosir Fozilovning asarlarini o'qib tugatdim. Yozgi ta'tilda Tursunboy Adash-boyev asarlarini o'qimoqchiman.

- Pokiza qizim o'zi a'loga

o'qibgina qolmay, o'zlashtirishi pastroq bo'lgan sinfdoshlaridan ham ko'magini ayamaydi, - deya suhbatimizga qo'shildi uning sinf rahbari Saltanat opa Abdiyeva.

«Kelajakda kim bo'lmochi-san?» degan savolimizga Pokizanining, mohir sportchi bo'laman, deya javob berishini taxmin qilgandik. U esa, mehribon shifokor bo'laman, sport doimiy hamrohim bo'ladi, dedi ishonch bilan.

Biz undagi qat'iyatni ko'rib, sira hayratlanmadik: sportchilar shunday bo'lishadi-da, axir!

Sadulla bobo QOZOQOV,  
Shahnoza ALIMOVA,  
II-umumta'lum maktabining matematika fani o'qituvchisi.  
Jizzax viloyati



Tong yulduzi

25-aprel 2011



Yetuk bilim, malaka — ishda unum, baraka



## Bahor malikalari

Aziz bolajonlar, oynai jahon orgali tengdoshlarining sport sohasida erishayotgan yutuqlarini ko'rib havasingiz kelishi tabiiy, shundaymi?! Ayniqsa, respublikamizda siz uchun barpo etilgan zamonaviy sport inshootlarini ko'rib, ko'zingiz quvonadi. Bunga javoban yosh sportchilarimiz ham turli xalqaro bellashuvlarda, Olimpiada o'yintari va Jahan birinchiligi musobaqalarida yuqori natijalarga erishmoqdalar.



### MUATTAR

O'tgan yili «Bahor malikalari» musobaqasida ishtirok etish ko'plab sportchi-dugonalari kabi sportning yengil atletika turiga mehr qo'ygan Muattarga ham nasib etdi. Bu ishtiroki uning yangi qirrularini ochib berdi, g'oliblikni qo'lga kiritib, I-darajali Diplom bilan taqdirlandi. Bunga katta mas'uliyat ham yukladi. Bundan-da, ko'proq mashq qila boshladi, musobaqalardan musobaqa larga yo'ldi. Natija yomon bo'lmadi. O'zbekiston championati musobaqalarida 2-va 3-o'rnlarni, Toshkent viloyati ochiq birinchiligi uchun o'tgan musobaqalarda faxrli 1-, 2-o'rnlarni egalladi.

— Sportga mehr qo'yishimga onam sababchi bo'lganlar, — deydi Toshkent viloyati, Angren shahridagi 7-maktabning 8-sinf o'quvchisi Muattar Akbaraliyeva. — Shuning uchun ular ishonchini oqlashga harakat qilaman.

Muhabbat ABDUQODIROVA

## SAROV SOHIBASI

Sarvinoz Avvalboyeva Jizzax shahridagi 4-maktabning 7-sinf o'quvchisi. U sportiga erta mehr qo'yi. 7 yoshidan boshlab shahardagi «Kurash saroyi»da murabbiy Anvar aka Nuraliyevdan taekvondo (ITF) turi bo'yicha saboq ola boshladi.

Champion bo'lishiga astoyildil intilgan Sarvinoz viloyatda o'tkazilgan musobaqalarda shohsupaga ko'tarildi. Shoda medallar sohibasiga aylangan bu qizaloqning, tasviriy san'atga ham ishtiyogi baland. Uzoq manzillarni ko'zlab, sport va san'atga mehrni diliga joylab, kelajakka daril qadam qo'yayotgan Sarvinoga, omad yor bo'lsin, deymiz!



## ORZIGUL

Respublikamizning Toshkent, Samarqand, Namangan va Xorazm viloyatlarida o'tkazilgan «Bahor malikalari – 2011» sport festivalida o'quvchi-qizlar sportning yengil atletika turi bo'yicha bellashdilar. Ushbu tadbirda Singapur davlatida o'smirlar o'rtasida bo'lib o'tgan Olimpiya o'yinlari ishtirokchisi Ruslan Qurbanov va o'smirlarning Markaziy Osiyo o'yinlari va ikki karra «Umid nihollari» sport musobaqalari g'olib Ozoda Karimova ham o'z mahoratlarini namoyish etdilar.

Samarqand viloyatida bo'lib o'tgan sport festivalining «Bahor malikasi – 2011» nominatsiyasida Buxoro viloyati, Romitan tumanidagi 29-maktabning 7-sinf o'quvchisi Orzigul Ramazonova g'olib chiqdi. Keskin o'tgan bahsler natijasiga ko'ra Samarqand viloyati bиринчи, Navoiy viloyati ikkinchi, Buxoro viloyati uchinchi o'rinni band etdi.

Tadbir davomida umidli sportchilar orasidan mahoratlari saralanib, ularga tegishli toifalar berildi. Dasturga ko'taklik etilgan Olimpiya o'yinlari sovrindorlari



Go'zal Xubbiyeva hamda Nadiya Dusenovaning ishtiroki va mahorat saboqlari festivalning ko'tarinki ruhda o'tishiga xizmat qildi. 1300 nafarga yaqin o'quvchi-qizlar ikkinchi hududiy bosqichlarida ham ishtirok etishdi.

Musobaqa yakunlangach, ishtirokchilar Samarqand viloyatinining tarixiy obidalarini tomosha qildilar.



Arnasoy tumanidagi 20-maktab istiqlol yillarda qad rostladi. Ayni damda mazkur maktab o'quvchilarining ko'pchiligi sportning shaxmat-shashka, futbol, voleybol va tennis turlari bilan jiddiy shug'ullanishadi.

## ISHONCH YARIM G'ALABA!

Ular orasida 9-sinf o'quvchisi iqtidorli rassom, a'lachi va mohir sportchi Asror Musurmonovning ham borligi bizni quvontiradi.

U tuman, viloyat va respublika miqyosidagi musobaqalarda faxrli o'rnlarni egalladi. Karatedoning fudokan turida ikki marta Osiyo championatida ishtirok etdi.

— Yaqinda Ashxbod shahrida bo'lib o'tgan Osiyo championatida karate-do yo'nalihsida ishtirok etib, 3-o'rinni band etganimdan faxrlandim,—

deydi Asror. — Bu bahislarda O'zbekiston, Turkmaniston, Qozog'iston, Yugoslaviya va Italiya kabi davlatlardan kelgan 14-15 yoshli 300 nafardan ziyod mohir sportchi tengdoshlarim ishtirok etishdi. Musobaqa ular karatening kata va kumite bahslarida kuch sinashdilar. Men kata bahsida o'z vazn toifamda shohsupaning 3-o'rni egallab, tajribamni yanada oshirdim. Championat davomida xalqaro toifadagi sport ustasi bo'lishni dilimga tugib qo'ydim. Yuuqularimdan ota-

onamning quvonchi bir olam. Ayniqsa, onam: «Sen, albatta, jahon championi bo'lasan» deya doimo dalda beradilar. Zero, ishonch yarim g'alabadi.

Asror ota-onasi, ustozlari ishonchiga munosib bola.

Bizing esa ana shunday

vorislarimiz ko'pligidan

ko'nglimiz tog'dek o'sa-

veradi.

Namoz QARSHIYEV,  
Jizzax viloyati

# QALBING QAYINQO ISADOLARI

Qashqadaryolik ijodkor qizimiz Mavluda Uralova o'zining «Shirmoy non» nomli she'riga:

Bir kun ulg'ayib yesam,  
Shoirlikning nonini.  
Osmonlarga ko'targum  
Oyijonim nomini...

duya xulosa yasaydi.  
Bugun Mavluda kabi shoirlik

nonini yeishi ishtiyoqida  
qalam tebratayotgan  
tengdoshlarinig ijodidan  
saralab, sahifa tayyorladik.  
Zero, ijodkor uchun  
yurtning, elning, onaning  
sha'nini ko'klarga  
ko'tarishdan ortiqroq baxt  
yo'q. Qalbing qaynoq  
sadolari dilingizni xushnud  
aylasin...

Sohibjamol KATTAYEVA,  
Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi,  
11-umumta'l'm maktabining  
7-sinf o'quvchisi

## ASL O'G'LON

Andijonning tumori bo'lib,  
She'riyatda daryodek to'lib,  
Maysalardek yugurib-yelib,  
Qalbi osmon, Muhammad Yusuf.

«Tanish terak»lardan so'raylik,  
«Erka kiyik»larni ko'raylik,  
Sizni doim eslab yuraylik,  
So'zi ummon, Muhammad Yusuf.

Vatanim deb yangrар so'zлari,  
Sadoqatga to'la ko'zлari,  
Bir she'r bo'lar har bir izlari,  
Asl o'g'lon, Muhammad Yusuf.

Ijodkorga ilhom bag'ishlab,  
Haqiqatni qo'lidan ushlab,  
Shogirdlarni dildan olqishlab,  
Umri shoyon Muhammad Yusuf.

## SOG'INAMAN SIZNI, ONAJON!

Ko'zlarimga unsiz yosh oldim,  
Sog'inaman Sizni, onajon.  
Yurak pora bo'lib yolvordim,  
Kelmaysizmu endi hech qachon?!

Kechalari uxbayolmayman,  
Yo'lingizni poyleyman mudom.  
Bolishlarga g'amni joyleyman,  
Xayollarim og 'ib Siz tomon.

Yig'lab, goho g'amgin xo'rsinib,  
Tushda ko'rdim suratingizni.  
Mayli, tushda boshimni silang,  
Sog'inganman suhbatingizni...

## DO'STLIK

Do'stingman deb ursa lof,  
Bilki u do'sting emas.  
Do'stlik yurakda bo'ur,  
Chunki yurak aldamas.

Kimki johil, bemehr,  
Mudom undan uzoq qoch.  
Kimki sofdir, mehribon,  
Unga o'z bag'ringni och.

Shundagina quyoshning,  
Etagidan tutasan.  
Haqiqiy do'stni topib,  
Maqsadingga yetasan.

## SHIRMOY NON

Menga ataylab oyim,  
Yopib berar shirmoy non.  
Yegach, tanamga go'yo,  
Kirganday bo'lar darmon.

Bir kun ulg'ayib, yesam,  
Shoirlikning nonini.  
Osmonlarga ko'targum,  
Oyijonim nomini.



## QISHLOG'IM

Mening go'zal qishlog'im,  
So'lim qashqar bo'yida.  
Ko'm-ko'k dala, adirlar,  
Qo'y-qo'zilar qo'ynida.

Do'stberdi uning nomi,  
Uzumi bilan mashhur.  
Olimlar chiqqan undan,  
«Payon Ravshan» kabi zo'r.

To'rt tomoni yam-yashil,  
Gilam bilan o'ralgan.  
Qishlog'immi bilsangiz,  
Dong'i elga taralgan.

Qashqadaryo faxridir,  
Mening go'zal qishlog'im.  
Ta'rifini so'zlasam,  
Qonar dilda chanqog'im.

## Xudoibergi TO'XTABOYEV

Xullas, Tagob qishlog'ida ana shunday qiziq gaplar juda ko'p. Juda-juda ko'p. Yigirmatasini yon daftaramiga yozib ham oldim. Lekin shu qiziq gaplardan bittasini shunaqa ta'riflidlarki, oqlovchi, qoralovchi so'zлari shunaqa ko'p aytidlarki, hammasini yozib olay desam, daftaramda joy yetmay qoldi.

Bir qarasangiz, maqtanchoq emish, bir qarasangiz, juda-juda sipo, kamtar emish. Bir kun tengqurlari bilan kurashga tushsa, ertasiga dadasi bilan birga borib ashula aytarmish. Shunaqangi bir so'zli ekanki, aytgan so'zidan hech qaytmasmish. Lekin o'ziyam g'oyat ko'rkam, g'oyat go'zal bi yigitcha bo'lib yetishayotgan emish. Ehtimol shuning uchundir, bu yigitchanibir yo'la beshta qiz sevib qolgan emish. Bittasi, «Men uni beshinchisinfaligidma tanlaganman, qaysi qiz una sal yaqinlashsa, sochini bittalab yulib, boshiga o'rab qo'yaman, taqir boshiga qatiq surtib, qizlar o'rtasida sharmanda qilaman»,

degan emish (qarang, qiz bola ham shunaqa gaplarni aytarkan-da); bitta qiz, dadam seni Yo'ldoshxonan boshqasiga beraman desa, gapni ko'paytirib o'tirmayman, o'zimni daryoga tashlayman, degan emish. Uchinchi bir qiz esa hammasidan ham qiziqroq gapni aytibi: «Biz kelajakda Yo'ldoshxon bilan turmush quramiz, turmush quramiz-u, darhol Toshkentga ko'chib ketamiz, ko'chib ketayotganda Yo'ldoshxon akamning bog'idan uch yuz tup anjir ko'chati ham olib ketib ko'paytirib, butun Toshkentga anjir sotamiz», degan gaplarni o'yalmish-u lekin o'ylaganlarini hech kimga sezdirmas emish. Tengqurlariga qaraganda xiyol novcharoq, tik qomatli, bug'doy rang yuzli, yuzi-ko'zлari lovullab yonib turadigan Yo'ldoshxon esa bu gaplarga uncha parvo qilmas emish.

(Davomi bor)

## OY QO'NADI KAFTINGGA

Shahnoza  
TURSUNOVA,  
O'zMU qoshidagi  
akademik litsey  
talabasi



## BAHORJON

Chamanzorlar bo'lgay lolazor,  
Ona yurtga bahor kelgan on.  
Yalpizlar ham taratar ifor,  
Kelganingda har gal, bahorjon.

Osmonlarda varraklar uchar,  
Bolajonlar quvnashar shodon.  
Samolarning bag'ini quchar.  
Kelganinda har gal, bahorjon.

Gulning isi sening taftingga,  
Oy qo'nadi tunda kaftingga.  
Lolalarga dildosh paytingda,  
Bog'lanaman senga, bahorjon!



Sarvinoz  
JONMURODOVA,  
Qashqadaryo  
viloyati, Qamashi  
tumanidagi  
45-umumta'l'm  
maktabining 5-«A»  
sinf o'quvchisi

## QIZ TALASHGAN O'SMIRLAR



(Boshi o'tgan sonlarda)

Janobi elchi kula-kula rozi ham bo'lib, yangi yil arafasida oltin qafasga solingan, kekkayib turgan bo'ydon xo'rozlardan oltitasini o'smiring uyiga yetkaшиб beribdi. O'smir bu xo'rozlardan besh-o'n kun zavqlanibdi, nihoyat, Tagobdag'i xo'rozlarni urishishga qo'yanekan, chatoq bo'pti, juda chatoq

bo'libdi. Urugvay xo'rozlaridan birortasi ham urishmay qanonimi yozib, Tagob xo'rozlarini oldiga tushib qochaveribdi, qochaveribdi. O'smir yig'lagudek bo'lib:

—Yo'q-yo'q, men Urugvay mamlakatidani emas, Paragvay mamlakatidan xo'roz so'ragandim, —deb yana yo'lkiraga onasidan pul olib, Toshkentga jo'nab ketgan emish...



*Har bir sportchining yutug'i zamirida, eng avvalo, qalbi mehrga to'la ota-onasining mehnati yotadi. Shunday ekan, yurtimizning tanqli sportchisi, stol tennisi bo'yicha yoshlari o'rtaida jahon championi Sevara Qodirovaning onasi Hafiza opani izlab Chust shahriga bordik. Bizga uni Hisorak qishlog'idagi stol tennisi bo'yicha ixtisoslashtirilgan 6-Olimpiya zaxiralari bolalar va o'smirlar sport məktabida ekanligini aytishdi.*

*Championning onasi bilan ilk muloqot chog'idayoq suhabatdoshimiz nafaqat mehribon ona balki, talabchan murabbiy ham ekanligini biliib oldik.*

## CHEMPIOONNING ONASI

— Bugungi kunda maktabimizda 706 naflar o'quvchi yoshlari sport bilan mutazam ravishda shug'ullanib kelishmoqda, — deydi Hafiza opa. — Eng quvonarlisi, ularning safi kun sayin oshib bormoqda.

— Mamlakatimizda qizlarni sportga jalb qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu bora-dagi yutuqlar haqida nima deya olasiz? — deya suhabatni davom ettirdi.

— Bizada 386 naflar yosh qizalolari stol tennis sirlarini qunt bilan o'rganishmoqda.

— Ularning qo'lga kirita-yotgan yutuqlariga ham to'xtal sangiz.

— So'nggi yillarda Boltiqbo'yining Riga shahrida o'tkazilgan xalqaro musobaqada Tohir Salimov 1-o'rinni, Muzayyam Muhammadjonova 2-o'rinni, Shahzoda Jumaboyeva 3-o'rinni egallab, yurtimiz

sharafini munosib himoya etdilar...

Hafiza opa shogirdlari, farzandlari yutuqlari haqida to'lqinlanib, maroq bilan so'zlardilarki, shunday murabbiylari bo'lgan iqtidorli bolalarga havasizmiz kelganini yashira olmadik.

— Maktabdan besh baho olib kelgan o'quvchining uyidagilari qanchalik xursand bo'lishganini ko'rganmiz. 1999-yilning sentabr oyida qizingiz Sevara Qodirova Shvetsiyaning Karlsborg shahrida yoshlari o'rtaida bo'lib o'tgan jahon championatida barcha raqiblarini dog'da qoldirib, champion bo'lganligi haqidagi xabarni eshitganingizda ko'nglingizdan nimalar kechgan?

— O'sha kunni har eslaganimda yuragim hapriqib ketadi. Otasi, butun oilamiz go'yo sehranib qolgandek edik. Qo'shnilar, ko'-cha-ko'ydagani tanishlarning tabrik-

lari, eh-he, farzanding kamolotini ko'rishdan ortiqroq, baxt bormi dunyoda?! Men jajji o'g'ilchasi yoki qizchasinig qo'lidan yetaklab sport mashg'ulotlariga olib borayotgan har bir ota-onaga ana shunday quvonchli kunlar nasib qilishini istardim. O'sha g'alabasi uchun qizimga «Tiko» avtomashinasini sovg'a qilingan edi. 2000-yilda Namanganda bo'lib o'tgan «Universiada» sport o'yinlarda talaba sifatida ishtirot etib, 1-o'rinni egalladi. Bu musobaqadagi g'olibligi uchun ham yana bitta «Tiko» avtomobili bilan taqdirlandi.

— Hozirgi kunda qizingiz Namangan shahridagi «Pahlavon» sport majmuida tennis maktabi ochib, bolalarga bu ajoyib sport turidan saboq berib kelayotgan ekan. Yosh murabbiyining ustozlari haqida ham bilmogchi edi.

— Sevara qizim 1983-yilda tug'ilgan. Olti yoshidan tennis bilan shug'ullanishni boshlagan. Dastlab unga o'zim, keyinchalik tog'asi, sport ustasi Muhammadjon Hamidov murabbiylik qildi.

— Suhbatimiz davomida shu narsa ma'lum bo'ldiki, oilangizni tennischilar sulolasini deyish mumkin ekan-da?

— Albatta, kichik qizim Saida sport ustaligiga nomzod. O'g'lim Sarvar Muhandislik institutining 4-bosqich talabasi. U ham tennisni yaxshi o'yaydi. Nabiram Sayyordan ham umidimiz katta. Endigina 2-sinfni tamomlayotganiga qaramay natijalari havas qilgudek.

Hisorakdagagi tennis maktabidagi ishlardan quvonib qaytdik. Axir birgina qishloqda shuncha tennischi bolalar kamol topsa, ularning respublika miqyosidagi ko'lamenti tasavvur qilish qiyin emas.

## BIR MAHALLADA IKKI YUZ SPORTCHI

*Ma'lumki, sportning ommaviyligini ta'minlashda sport maktablarining o'rni beqiyos. Bunday maskanlar esa yurtimizda talaygina. Ularda tahsil olayotgan o'quvchilarning maktab partasidanoq champion degan sharafli nomga erishayotganlari yanada quvonchli.*

Farg'onona viloyati, Yozyovon tumaniidagi 1-bolalar va o'smirlar sport maktabi tarbiyalanuvchilarini tumanda ko'pchilik yaxshi biladi. Negaki, ular ishtirokidagi sport musobaqalari doimo bir-biridan qiziqarli va zavqli o'tadi.

— Buning sababi, — deydi faxr bilan Yozyovon shaharchasi mahalla Fuqarolar yig'ini raisasi Dilorom opa Kolmatova, — mahallamizning ikki yuzga yaqin yoshlari sportning 11 turi bo'yicha mashg'ulotlarga qatnashadi. Biz bolalarimizning bo'sh vagti sport maydonlarida o'tayotganidan xur-sandmiz.

Tuman sport maktabining yana bir yaxshi an'anasi bor: bu yerda

o'tkaziladigan har bir musobaqaga mehnat faxriylari va faxriy sportchilar taklif etiladi. Ular ishtirokidagi uchrashuvlar bo'la-jak sportchilarga olam-olam zavq bag'ishlaydi.

— Bugungi kunda sport maktabimizda 80 ta guruhda 1078 naflar iste'dodlar tarbiya topmoq-dalar, — deydi sport maktabi direktori Erali aka To'raqulov. 119 naflar qizlarning sport bilan mutazam shug'ullanishi tumanimizda sportchi qizlarning soni oshib borayotganidan darak. Ularga 32 naflar tajribali murabbiylar saboq berishmoqda. O'tgan yili dargohimizda ish boshlagan badiiy gim-nastika bo'limida ayni kunda 30

dan ziyod kichkintoylar mashg'ulotlarni boshlaganlar.

Maktabimiz o'quvchilari viloyatda belbosq'li kura-sh musobaqasida birin-chilikni qo'lga kiritdilar.

Vodiylar xalqi azal-azaldan mehmono'stligi bilan nom qozongan. Aytmoqchi bo'lganimiz, sport maktabimizga bir keleng, bu yerda kamol topayotgan umidli sportchi bolalarimizning ko'pligiga iqror bo'lasiz.

Muhammadjon  
MAHMUDOV,  
Marg'ilon shahri





## Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibalari

Bu yilgi Zulfiyachilarining uch nafasi mohir sportchi, qolganlari ham sport bilan yaqindan do'stlashgan qizlar ekanligini kishini behad quvontiradi. Guliston Davlat Universiteti 2-bosqich talabasi Sevara Mirzabekova ana shulardan biri.

## HAVAS BILAN YASHAYLIK!

Sportning akademik eshkak eshish turi bilan shug'ullanayotgan bu sportchimiz mamlakatimiz miqyosida o'tadigan bir qator musobaqalarda qatnashib, yuqori natijalarga erishib kelmoqda.

Jumladan, 2004-2010-yillar mobaynida akademik eshkak eshish bo'yicha jamoaviy guruhda O'zbekiston championati va kubogi uchun o'tkazilgan musobaqalarda 12 marotaba g'oliblikni qo'lga kiritib, I darajali Diplomlarga sazovor bo'ldi. 2008-yilda «Kelajak ovozi» respublika yoshlar tanlovida «Sport» nominatsiyasi bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritdi. Shuningdek, respublika miqyosida o'tkazilgan qirg'dan ziyod musobaqalarda II va III darajali Diplomlar sohibasi bo'ldi.

Bu tinib-tinchimas qizimiz tumanda xotin-qizlarni sportga jalg'etish borasida ham ibratli ishlarni amalga oshirib kelyapti.

Bugunning barcha yoshlari kabi axborot texnologiyalari bilimdoni, «Kamolot» Yoshlar ijtimoiy harakati faoli.

Havas bilan yashagan inson murodiga yetadi, deyishadi. Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibalariga havas qilib, ular safidan o'rinishga astoydil intilgan Sevara Mirzabekova bu yil murodiga yetdi. Endi unga izdosh bo'lishiga intilayotgan qizlar soni ham kun sayin ortib boryapti.

Bolaligimizda, to'uda kurash bo'lar ekan, degan gapni eshitsak bormi, onam ta'biri bilan aytganda «qanot chiqarardik». U paytlar Surxon to'ylari kurashsiz o'tmasdi. Men ham kurashga zavqim borligidan jelak' tiktirib olgandim.

Hammasiga sinfdoshim Mustafо sababchi bo'lgan. U bir to'uda uch kishini yiqitib, polvon bo'lib oldi-yu. bizning tinchimiz yo'qoldi. Mustafodan qayerimiz kam deya, o'rtog'im Sa'dulla bilan to'ylarda bakovullarning boshini qotiradigan odat chiqardik.

Temir kal bilan usta Hayitning boshimiz uzra zuvillab o'ynatgan xipchini ham shashtimizdan qaytarolmasdi. Negaki, kurashmay uya borgan kunim bobomdan qutilmayman. U kishi gapni uzoqlardan keltirib, «kurashadigan odamning belida quvvati bo'lishi kerak», - derdi. Bobom go'yo bu gap bilan belimizni sindirib qo'ygандай

Surtdagi tengdoshingizni sizlarga tanishirishning hojati bo'lmasa kerak-a? O'tgan yili poytaxtimizda bo'lib o'tgan badiiy gimnastika bo'yicha XI Osiyo championatida muvaffaqiyatlari ishtirot etgan nafosat malikalaridan biri-ku, deysizmi, ha barakalla!



## SARVINANI TANIDINGIZMI?

To'rt yoshidan sportning badiiy gimnastika turi bilan shug'ullanib kelayotgan Sarvina Xaliquova yurtimizda va jahon miqyosida o'tkazilayotgan nufuzli musobaqalarda yuqori natijalarga erishib, Vatanimiz sharafini munosib himoya qilib kelmoqda.

2008-2009-yillarda Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan o'tkazilgan badiiy gimnastika bo'yicha respublika birinchiligidagi ikki marta qatnashib, birinchilikni qo'ldan bermadi. «Umid nihollari» musobaqlari va bir qator turnirlarda g'oliblik shohsupasiga ko'tarildi.

2009-yil esa yosh sportchimizga yanada katta imkoniyatlar yaratib berdi. Endi u nafaqat respublikada, balki xalqaro musobaqalarda ham qatnashish baxtiga tuyassar bo'ldi. To'g'ri, avvaliga hayajonlandi, chunki kuchlilarining eng kuchlisi degan nomga ega bo'lish oson emasdi. Tinimsiz harakat, mashhaqqatli mehnat o'z samarasini berdi. Toshkent va Buxoro shaharlarda o'tkazilgan xalqaro turnirlarda eng kuchlilar safidan joy oldi. Bu esa o'ziga bo'lgan ishonchini orttirdi. Ana shunday kiyafyat bilan Germaniyada o'tkazilgan xalqaro turnirda ishtirot etdi va faxrli o'rinni egalladi.

Bugungi kunda Sarvina Buxoro shahridagi 21-umumta'lim maktabining 9-sinfida o'qimoqda. Maktabdoshlarini sportga qiziqitirish maqsadida ezgu ishga qo'l urdi. Maktab qoshida «Nafis» nomli sport to'garagini tashkil etdi. Hozirgi kunda yigirmadan ziyod qizlar badiiy gimnastika bo'yicha mashg'ulotlarda faol qatnashmoqdalar.

Yaqinda Sarvinaning Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibasi, bo'lgani haqidagi xushxabarni eshitgan do'stleri, o'zi munosib edi-da, deya havas qilishdi.

## UNUTILMAS ORIYAT

bo'lardi. Oriyatimiz kelib, qor yoqqaq paytlarda ham yalang oyoq bo'lib maydonga tushardik.

Agar to'ya bir-ikki kishini yiqitsak bormi, o'sha kecha bizdan baxtiyor odam bo'limasdi. Yiqilsak, tun ham uzayardi. Uyqu qochib, tuni bilan, nega yiqildim, deya yo'l qo'ygan xatolarimizi izlardik.

To'ya kurashmagan yigitlarni «o'yinchisi» deya kamsitishardi. Biz o'shanda «o'yinchisi» bo'lishdan qo'rqib, belimizni to'rt joyidan mahkam bog'lagamnz...

Bugun o'ylab qarasam, bobom to'g'ri aytgan ekanlar. Algomishning avlodlariga kurash yarashadi. Har gal kuragi yerga tegmagan polvonlar yurti bo'lmish Surxon vohasiga borsam, bolaligimni eslayman.

Kurashmay qo'ygan yigitlarga kuyinaman....

## AXTAMQULI

1. Jelak - polvonlar kiyimi



Maxsus sonni nashrga tayyorlaganlar:

T.HAYITOV,  
F.JALILOVA,  
FADILOVA,  
M.MADRABIMOVA,  
A.KARIMOV,  
Yu.ABDULLAYEV,  
GORIFJONOVA,  
Z.MAMATQULOVA,  
O.ORIPOV

Rasmilar muallifi:  
FMATYOQUBOV